

SAMARQAND BO'ZNOCHI O'SIMLIGINI TABIIY TARQALISHI VA BOTANIK TAFSIFI

Sultanova Gulbahor Abdijalolovna

Toshkent davlat agrar universiteti assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7233408>

Annotatsiya: Qoqio'tdoshlar oilasining bo'znochi turlari asosan Janubiy Afrika, Avstraliya va Kichik Osiyoda tarqalgan 500 dan ortiq turlarni o'z ichiga oladi. Osiyoning qolgan qismida kam sonli turlari mavjud. Bir nechta turlari manzarali o'simliklar sifatida yetishtiriladi.

Kalit so'zlar: Tur, tarqalishi, o'simlik, botanik-geografik, tadqiqot.

Geografik tarqalishi.

Samarqand bo'znochi (*H.maracandicum*) O'rta Osiyo (Tiyan – Shan va Pomir – Oloy tog' tizmalarida) mamlakatlaridan Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston va Tojikiston davrlarida tabiiy xolda tarqalgan bo'lib, xususan O'zbekiston Respublikasining Toshkent, Namangan, Farg'ona, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tog' va tog'oldi mintaqalarining dengiz satxidan 1000 – 2500 metr baland bo'lgan joylarida uchraydi. Bu esa o'z navbatida turning tarqalish areali respublikamizda nisbatan kengligini ko'rsatadi.

Helichrysum Mill. turkumi turlarining populyasiyalari haqida hozirgi paytda ma'lumotlar yetarli emas, shunday turlardan biri *H.arenarium* Moench. turi hisoblanadi. *H.arenarium* Moench. S.Ye. Yerejepov tomonidan «Qoraqalpoq florasi» nomli monografiyasida keltirilgan. Lekin, hozirda Milliy gerbariy fondida saqlanayotgan namunalar tahlil qilish asosida oxirgi (1980-2018 yillar) yillar mobaynida tadqiqotchilar tomonidan gerbariy namunalari yig'ilmaganligini inobatga olgan holda bu turning yo'qolib ketish arafasida yoki yo'qolib ketgan degan xulosaga kelish mumkin.



1 - rasm. Samarqand bo'znochi o'simligini gullagan vaqtdagi xolati.

H.maracandicum O'rta Osiyo (Tiyanshan, Pomir-Oloy) mamlakatlarida, respublikamizning Toshkent, Jizzax, Namangan, Qashqadaryo, Surxondaryo hamda Samarqand viloyatlarining Zarafshon tog' tizmasida dengiz sathidan 1000-2500 m baland bo'lgan joylarida uchraydi. Bu esa o'z navbatida turning tarqalish areali respublikamizda nisbatan kengligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, *H.maracandicum* o'ziga xos dorivorlik xususiyatiga ega. Bu esa o'z navbatida turning populyasiyalari va ularning tabiiy zaxiralari ustida muntazam tadqiqotlar olib borish kerakligini ko'rsatadi. Dastlab turning O'zbekistonda

va unga yaqin bo'lgan hududlarda tarqalishi bo'yicha adabiyotlar, shu bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti Milliy gerbariysida (TASH) saqlanayotgan gerbariy namunalari tahlil qilindi. Mazkur turga bo'lgan qiziqish olimlar tomonidan bir necha yillardan buyon davom etib kelmoqda. Tur doirasidagi gerbariy namunalari 1921 yildan boshlab 2015 yilgacha tadqiqotchilar tomonidan yig'ilgan.

Boysun botanik-geografik rayonidan O.Turginov (2011, 2012) va boshqalar tomonidan O'zbekistondan va unga yaqin hududlardan gerbariy namunalari yig'ilgan.

Dala tadqiqotlari natijalari Samarqand bo'znochi o'simligi respublikamizning Toshkent viloyati (Ugom va Piskom tog' tizmalari), Ohangaron, Jizzax viloyati (Turkiston tog' tizmasi), Samarqand viloyati (Zarafshon tog' tizmasi), Qashqadaryo viloyati (Hisor tog' tizmasi), Surxondaryo viloyati (Boysun tog' tizmasi) hududlarida uchrashi ma'lum bo'ldi.

O'simlikning botanik tavsifi. Samarqand bo'znochi — *Helichrysum maracandicum* Popov ex Kipr, Astradoshlar — Asteraceae (Murakkabguldoshlar — Compositae) oilasiga kiradi. O'simlikning bo'yi 20–35 (75) sm, yog'ochlangan kaudeksi kuchsiz rivojlangan, poyasining soni 4 – 6 (10) ta egatchali, qattiqlashgan, qo'ng'ir, egri – bugri tuklar bilan birga bezli tuklar mavjud, ba'zan o'rgimchak tursimon tuklar bilan qoplangan bo'ladi. Barglari och – yashil yoki sariq qong'ir, o'rgimchak to'rsimon tuklar bilan qalin qoplangan. Gullari tuklar bilan qalin qoplangan, ba'zan bezli tuklar ham aralashgan, savatchalari bilan tutashgan bo'lib, ularga tenglashadi yoki kaltaroq. Savatchalari ko'p gulli (60 – 75), (6) 15 – 50 (100) tadan bo'lib, boshcha yoki murakkab qalqonsimon to'pgullarga o'rnashgan. Gullarining diametri 7 – 10 mm, yarimsharsimon, keng qo'ng'iroqsimon, kosachasimon, o'ramabarglari 5 qatorli, sariq – limon rangli, uzunchoq o'ramali, tashqi tomondagilari lensetsimon shaklli, ichki gulbargchalari

uzunchoq kuraksimon qalin bezchali bo'ladi. Urug'larining uzunligi 0.5 – 0.8 mm, prizmatik, noaniq qovirg'ali, to'q qo'ng'ir rangda, oq bezchalar bilan qalin qoplangan. 1000 dona urug' vazni 1- 1.5 gram keladi. Gullari iyun – avgust oylarida ochilib kech kuzgacha ochilib turadi va urug'lari sentyabrda yetiladi.

Maxsulotni tashqi ko'rinishi: Tayyor maxsulot yakka yoki bir nechtasi bir bo'lgan savatcha (gul to'plami)dan tashkil topgan. Savatcha sharsimon bo'lib diametri 5 – 7 mm. Maxsulot kuchsiz o'ziga xos xid va o'tkir achchiq mazaga ega. Maxsulotda gullari ochilmagan (gullamasdan oldin yig'ilgan) yoki gullari tushib ketgan (gullab bo'lgandan so'ng yig'ilgan) savatchalar va uzun poyalar bo'lmasligi kerak. IX DF ga ko'ra tayyor maxsulot tarkibida flavonoidlar yig'indisining miqdori izossalipurpozid, gelixrizin bo'yicha hisoblaganda 5% dan kam bo'masligi kerak.

Kimyoviy tarkibi: Bo'znoch savatchasi (gul to'plami) tarkibida flavonoidlar (izossalipurpozid, salipurpozid, kempferol, naringenin, apigenin, gelixrizin va boshqalar), glikozidlar, organik kislotalar, kumarinlar, polisaxaridlar, vitamin K, efir moylari, mum va achchiq tanidlar uchraydi.

O'zRFA O'simliklar moddlari kimyosi institutining olimlari tomonidan *Helichrysum maracandicum* gul to'plamlarini o'rganib chiqib, quyidagi xulosalarni berishdi. *Helichrysum maracandicum* o'simligini gullarini urug'lashdan oldin yig'ib olingan. Bo'znochning bir necha turlari dorivor o'simliklar sifatida hususan uning gul g'unchalaridan dorivor moddalar, ekstraktlar yoki granulalar holida tibbiyotda jigar va o't yo'llarining surunkali kasalliklari, xoletsistit va gepatitda qo'llaniladi.

Ishlatilishi: Samarqand bo'znochi o'simligidan tayyorlangan preparatlar xolesistit, va gipoxolesistit kasalliklarini xamda jigar, o't pufagi, buyrak va o't yo'li kasalliklarini davolashda ishlatiladi..